MAQSUD SHAYXZODANING "JALOLIDDIN MANGUBERDI" TRAGEDIYASIDA OBRAZLAR TAHLILI

TOJIDINOVA DILDORAXON SHUKURILLO QIZI

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti

1-bosqich 103-guruh talabasi

e-mail: dildoraxontojidinova@gmail.com

tel: +998994925320

Annotatsiya: Maqolada Maqsud Shayxzoda ijodining yorqin namunasi hisoblangan "Jaloliddin Manguberdi" tragediyasidagi obrazlar tahlil qilingan. Manguberdining vatanparvarligi, jasorati, shijoati bilan bir qatorda asardagi obrazlarning xarakteri, asardagi o'rni, o'ziga xosliklari haqida so'z borgan.

Annotation: The article, a vivid example of Maksud Sheikhzadeh's work, the characters in the tragedy "Jaloliddin Manguberdi" were analyzed. This article is written about the characters in the tragedy called "Jaloliddin Manguberdi". In addition to Manguberdi's patriotism, bravery and courage, it was also written about the images and the importance of the characters, and the uniqueness of the characters in the book.

Kalit so'zlar: iste'dodli shoir, Vatan ozodligi, mo'g'ullar istilosi, xorazmshoh, vatanparvarlik, qahramon, sarkarda.

Key words: talented poet, freedom of the Motherland, Mongol (Mughal) invasion, Khorezmshah, patriotism, hero, general.

Tragediya muayyan hajmli, turli qismlari turlicha sayqallangan til yordamida, bayon vositasida emas, balki xatti-harakat orqali ko'rsatiladigan va iztirob bilan inson ruhini poklovchi muhim va tugal voqea tasviridir. Biz quyida ko'rib o'tmoqchi bo'lgan asar ushbu janrning betakror namunasidir.

Taniqli yozuvchi Maqsud Shayxzodaning "Jaloliddin Manguberdi" (1944-yil yozilgan) tarixiy fojiasi mo'g'ul istilochilariga qarshi kurashgan xalq qahramoni, buyuk sarkarda va davlat arbobi Jaloliddin Manguberdining hayotida sodir bo'lgan eng dahshatli manzalar aks etgan asardir. Bu tragediya o'zbek dramaturgiyasining eng bebaho xazinalaridan biri sanaladi.

Asarda Jaloliddin Manguberdi shaxsi, uning xarakteri, fazilatlari yorqin aks etgan. Uning to'liq ismi Jaloliddin ibn Alovuddin Muhammad bo'lib, Xorazmshohlar davlatining so'nggi hukmdori hisoblanadi. U yoshligidan otasi yonida yurib, harbiy harakatlar-u janglarda qatnashib, jismonan chiniqadi. Biroq mo'g'ul istilochilarining haybatidan cho'chigan otasi Muhammadshoh yovga qarshi bosh ko'tarish o'rniga Samarqandni tashlab ortga chekinadi. Kaspiy dengizi bo'yidagi Obeskun shahriga yo'l oladi, so'ng u yerdan panoh topadi. Yosh o'g'li jaloliddinning ham da'vat-u chaqiriqlari foyda bermaydi. Shu tariqa jaloliddin yolg'iz o'zi vatan himoyasiga chog'lanadi. O'ziga yaqin xon-u beklar va lashkarboshilarni bir kengashda jamlab, kuchli qo'shin tuzadi.

Jaloliddin o'z qo'shini bilan eng kuchli mo'g'ul askarlarini yengib, jasorat ko'rsatadi, dushmanga qirn keltirib, umrining oxirigacha vatanimizni yovdan tozalashga harakat qiladi.

Keling, yaxshisi, quyida ushbu mo'jaz asardan parchalar olib, obrazlarni tahlil qilsak.

Asarga badiiy bezak sifatida kiritilgan chol obrazi o'quvchini chuqur o'yga toldiradi:

O'yla bir devonaman, mendan qochar devonalar,

Yostig'im tosh-u tikan, xonam bo'lib vayronalar.

Suvda gar aksimni ko'rsam, o'z-o'zimdan alhazar,

Xasta soyamdan cho'chib, solmasman unga bir nazar!

Bu chol o'tmishda chindan ham yashab o'tganmi, u tarixiy shaxsmi yoki yo'q, bunisi bizga qorong'u. Lekin bu obraz o'sha davr zulmi, qiyinchiliklari-yu ko'rgiliklarini yorqin aks ettiruvchi oyna sifatida gavdalanadi. U shunday devonaki, undan hatto devonalar, ya'ni o'zi kabilar qochadi, balki, nafratlanadi ham. Agar "Teng tengi bilan", - degan maqolni kengroq tushunadigan bo'lsak, bu yerda chol hatto o'zi bilan teng birodarlaridan ham pastroq ekanligini aytmoqda. Yostig'ini tosh-u tikanga qiyoslashi esa uning g'am-g'ussalari-yu qayg'ulari naqadar ko'pligidan dalolat beradi: axir tosh qanchalar qattiq botadi, tikan sanchiladi. Bu yerda tosh va tikan predmetlari cholning hasratlariga ishoradir. Chol xonavayron bo'lgan, hatto uning tuzik bir boshpanasi ham yo'q. U shu qadar nafrat bilan yashaydiki, hayotda har bir jonli va jonsiz narsa, hatto o'ziga ham nafrat, jirkanish hissi bilan boqadi:"*suvda gar aksimni ko'rsam, o'z-o'zimdan alhazar''*. U bu "manzara"ga qarashni ham istamaydi:"*xasta soyamdan cho'chib, solmasman unga nazar''*. Xasta soya cholning xarob bo'lib ketganini anglatmoqda.

So'ngra o'zining bu holatiga mubolag'ali bir o'xshatish keltiradi:"*Boshim ko'rgan baloni ko'rsa edi bitta fil, Erib sichqon bo'lurdi, o'lmaganda... Tingla, bil!''*

Chol bu ayanchli holatiga izoh yanglig' quyidagi voqealarni so'zlaydi:

Ko'z o'ngimda so'yildi avlodlarim, xotinim,

Yosh qizginam zo'rlandi, men urildim betinim.

O'g'lim halok etildi bog'lanib ot dumiga,

Bir qizim qaynatildi tashlanib xum suviga.

Kichik o'g'lim ko'mildi tiriklayin tuproqqa

Bundan keyin ne kerak umr menday ahmoqqa?!

Inson uchun uning farzandidan bo'lak shirin ne'mat bo'lmasa kerak hayotda. Chol ana shu shirin ne'matdan, farzandlaridan ajralgan, mo'g'ul istilochilari hamma yoqni talagan. Shunday shiddatli voqealar guvohi bo'layotganingizda bir jumla diqqatingizni o'ziga tortishi aniq:"*yosh qizginam zo'rlandi''* !!! Cholning qizi yosh bo'lsa, demak, cholning o'zi ham mo'g'ullar zulmidan avval yosh va navqiron ota bo'lgan ekan-da! Zolimlar uni shu ahvolga solibdi-da! Ota uchun farzand shunchalar aziz ekanki, agar undan ajralsa, bor-budidan ajralib, vayron bo'lar ekan-da! Demak, bu misralarni shunday talqin qilish ham mumkin: farzand ota uchun eng bebaho ne'mat! Otaning farzandga bo'lgan mehri cheksizdir!

DUNYODA NAFAS OLISH O'ZI SERXATAR EKAN,

QO'L - BUTO'GI KESILGAN SAMARASIZ BIR TO'NKA.

Bu dunyoda nafas olish, ya'ni yashash qanchalar og'ir va xatarli! Har qadamda xavf bor, ammo ularning eng kattasi - o'lim!

Hammamiz e'tibor berganmizki, qo'l - inson uchun eng kerakli, eng muhim a'zo. U insonga yordamchi, har qadamda hamroh. Ammo u "*butog'i kesilgan samarasiz bir to'nka"* bo'lsa-chi? Oilasini bosqinchilar zulmidan qutqarib qola olmagan otaning vijdon azobi bu. Bundan chiqdi, eng samarali ish bu oilani asrash, qadrlash ekan-da vijdonli odam uchun!

"Vatan ostonadan boshlanadi", "Oilang sening Vataningdir" kabi jumlalar beixtiyor yodga tushadi. Vatan va ona tushunchalarini bir-biridan ayri tasavvur qilib bo'lmaydi.

Ko'rib turganimizdek, tragediya faqatgina bir g'oya bilan cheklanib qolmasdan, uning ichida yana bir qancha go'zal ma'nolar yashiringan.

Shuningdek, Jaloliddinning singlisi Sultonbegim naqadar oqila va dono malika bo'lganini ko'rishimiz mumkin:

Yorim birdur va lekin og'am ham bitta,

Tug'ilmaydi ikkinchi og'am, albatta.

Siz jang ichra, har lahza holingiz qaltis!

Diydoringiz g'animat, niyat shu yolg'iz!

Sultonbegim turmush o'rtog'i va akasi o'rtasida turib, murosa qilishni biladi. U akasining qadriga yetadigan mehribon singil:"*tug'ilmaydi ikkinchi og'am, albatta"*. U xorazmshohlar sulolasi vakilasi, otasi va akasining janglarda o'tgan hayotiga guvoh bo'lgan, yaralangan askarlarning o'limini ham ko'rgan, shuning uchun "*...jang ichra har lahza holi qaltis"* ekanligini yaxshi biladi. Shuni ham unutmaydiki, akasi bilan diydorlashib olishi kerak. Axir kim ham oldindan biladi jangda nimalar bo'lishini...

Sultonbegim onasi uchun har narsa qilishga tayyor mehribon farzand sifatida gavdalanadi:"*Lekin onam, onam-chi... men unga soqchi!"*

Asarda yana bir tarixiy shaxs - Nasaviy ham bor. U chin ma'noda Jaloliddinning do'sti, kotibi, maslahatchisidir. Nasaviy shohga sadoqatli, vafodor. Shuning uchun Jaloliddin barcha sirlarini unga ishonadi, u bilan dildan suhbatlashadi. Hatto uni *hazrat* sifati bilan ulug'laydi:"*Mullaga yechmoqlik osondur ammo! Hazrat Nasaviy!"*


Asarda ijobiy obrazlar ichida Jaloliddin Manguberdiga yetadigani yo'q. U vatanparvar, oilaparvar inson. U hayotdan faqat ezgulik izlaydi va bunga erishadi ham.

Oh... Oh...

Qasam bo'lsin Tangriga billoh,

Tiriklikda eng shirin holat -

Yov qochishin ko'rmoqdir faqat.



Jaloliddinning umri janglarda o'tgan. Jaloliddindagi g'oliblik hissi shu qadar kuchliki, dushmanni mag'lub qilganda ko'zlari porlaydi. U Vatanni ko'z qorachig'idek asrashni, himoya qilishni o'zining sharafli burchi deb biladi. Bu yo'lda u onasining duolariga muhtoj:

Ana, qara, ya'jujday bo'lishib g'ujum -

Bir to'daga mo'g'ullar qilmoqda hujum.

Ona, fotiha ber!

Bo'lsin pokiza duong jangda madadkor.

Pokiza duo bormi? Duo qachon pokiza bo'ladi? Ha, pokiza duo bor, albatta. U chin ko'ngildan, beminnat qilingan duodir. Unda pokiza niyatlar, ezgu tilaklar yotadi. Pokiza duo qilsa, ijobat bo'lishi shubhasiz.

Jaloliddin onasining duolarini mana shunday ulug'laydi.

Quyidagi misralarda shohning Vatan uchun har narsaga tayyor ekanligi yorqin bo'yoqlarda aks etgan:

Vatan deya kurashdim, onadan kechdim,

Unisidan sut ichdim, bu deb qon ichdim.

Mudhish tole bermishdir Jalolga Olloh,

Na ona bor, na yurt bor, na lashkar, evoh!

Ko'tara olarmikin shu dardni yurak?

Yo'q. qasosni olay deb yashamoq kerak!

Manguberdi orzu qilgan mustaqillikka bir necha asrlardan so'ng erishdik. Balki, yurtimizning vatanparvar o'g'lonlari tomirida uning qoni oqayotgandir.

Bir kun paydo bo'laman shu yurt, shu yerda,

Yurt shaydosi ko'milmas g'urbatda - go'rda.

Ulug'vor niyatlarga kor qilmas ajal,

Kim yurtidan yovni quvsa - mendurman o'shal.

Asar garchi Jaloliddinning ayanchli o’limi bilan tugasa-da, unda vatanparvarlik hissi ustun. Vatanga bo’lgan muhabbat kuylanaverar ekan, ‘’Jaloliddin Manguberdi’’ tragediyasi Jaloliddinni bizga o’rnak qilib ko’rsatib turaveradi. Zero, u haqiqiy jasorat timsolidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Arastu “Poetika” asari 2011. 27-bet
2. 8-sinf adabiyot darsligi 2019.
3. Izzat Sulton “Adabiyot nzariyasi”
4. Dilmurod Quronov “Adabiyotshunoslikka kirish”, “Adabiyotshunoslik lug’ati-2013”
5. Zokirov M. “Maqsud Shayxzoda. Adabiy-tanqidiy ocherk” 1969
6. Ibrohim G’afurov “O’rtoq shoir Maqsud Shayxzoda ijodiyoti” 1975
7. Maqsud Shayxzoda “Tanlangan asarlar” 2008
8. Yusuf Shomansur “Shayxzoda-buyuk shoir” 1972

9. “Maqsud Shayxzoda zamondoshlari xotirasida”
10. Xorazmiy.uz sayti
11. Darakchi.uz sayti